

MAVZU: OILA MUHOFAZASINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Shukuraliyeva Sevara Shuhratjon qizi

Namangan Davlat Universiteti

yurisprudensiya fakulteti 1-kurs talabasi

Telefon: +998(99) 085 74 16

sevarashuk12@gmail.com

Anotatsiya:

Ushbu maqolada Oila jamiyatning bir bo'g'ini ekanligi, shuningdek, Oila muhofazasining qonuniy asoslari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar:

Oila, Oila kodeksi, Konstitutsiya, Oila konsepsiyasi, Oila muhofazasi

Oila-muqaddas dargoh. Birgina shu muqaddas so'zning oilaga nisbatan ishlatilishida chuqur ma'no va mohiyat mujassam. Zotan, millatning ertangi kuniga dastlab oilada poydevor qo'yiladi, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi avlod shakllanadi, milliy madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar asrab avaylanadi, jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy farovonlik va madaniy yuksalishlariga asos solinadi, mustahkamlanadi. Insonga xos bo'lgan chinakam xayotni, farovon va baxtli turmush sharoitini mana shu amallarsiz tasavvur etib bo'lmaydi, albatta. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatida inson va uning manfaatlari ustuvor ekan, biz ko'zlagan maqsadlarga erishishda hayotimizning tayanchi va suyanchiga aylangan oilaning o'ni benihoya kattadir. Oila qurish bu – mas'uliyatli ish bo'lib, yoshlarning o'zlari uchun yangi bo'lgan ijtimoiy maqomga har tomonlama tayyorgarlik ko'rishlarini taqozo etadi. Ularni oiladagi munosabatlarni tartibga solishda qonunchilikning o'ni ajralib turadi. Yoshlarning oila to'g'risidagi qonunchilikni bilishi o'z huquqlarini himoya qilish, mustahkam va sog'lom oila qurish uchun zarurdir. Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqarordir. Shuning uchun ham oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, bolaning shaxs sifatida shakllanishi, kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishi hamda ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishishida asosiy poydevor hisoblanadi.

Oilani mustahkamlash, ota-onalar va bolalarning huquqini himoya qilishga jahondagi nufuzli tashkilotlar ham katta hissa qo'shdi. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda inson manfaatlari, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish xalqaro huquq normalariga binoan amalga oshirildi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948-yil), "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya" (1979 18-dekabr) va boshqa qator hujjatlarning parlamentizm tomonidan ratifikatsiya qilinishi mustaqillik yillarida oila, onalik va bolalik manfaatlarini xalqaro huquq normalari asosida himoya etish sohasidagi ijobiy qadamdir. Mamlakatimizda oilaviy-huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning me'yoriy hujjatlari, xalqaro huquqiy normalar, Fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari, O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom, Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish to'g'risida Nizom, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqidagi qaror, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining oila huquqi masalalariga qaratilgan dasturiy ko'rgazmalari bilan tartibga solindi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2012-yilga mamlakatimizda "Mustahkam oila yili", deb nom berilishi oila mustahkamligi masalasiga umumdavlat miqyosida e'tibor qaratilayotgani, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy vazifalar tizimidagi o'ni va ulkan ahamiyatini yaqqol ko'rsatib berdi.

Oilaning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi ahamiyati xususida to'xtalib, atoqli olim va adib Abdurauf Fitrat bunday degan edi: "Har bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga

bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, oilada tartib bo'lsa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi".

Milliy qonunchiligimiz oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni huquqiy asosda qurishga ko'maklashdi va ushbu sohadagi asosiy huquqiy hujjat 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan Oila Kodeksi hisoblanadi. Mamalakatimizda oilani ijtimoiy – iqtisodiy, huquqiy jihatdan qo'llab quvvatlash borasida izchil amalga oshirilayotgan ishlar samarasida ushbu qoida hayotimizda o'zining yorqin ifodasini topdi. Oila Kodeksini oilada tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashga xizmat qiladigan huquqiy hujjat desak xato bo'lmaydi. Chunonchi bu kodeks oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solib, oila a'zolari (ya'ni, er – xotinlar, ota-onalar, bolalar, shuningdek, oilaning boshqa a'zolari) o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun hujjati. Huquqning alohida tarmog'i hisoblangan oila huquqining maxsus manbaidir. E'tiborlisi, Oila Kodeksi mamalakatimizda "Oila yili" deb e'lon qilingan yilda qabul qilingan. Kodeks 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat. Amaldagi Oila Kodeksi bir qator huquqiy munosabatlarni yangicha hal etgan. Chunonchi, milliy negizlarga asoslanganligi (quad-andachilik, qarindosh – urug'chilik, bobo-buvilar va nabiralar o'rtasidagi munosabatlarning yangicha talqini), umuminsoniy qadriyatlar aks etganligi (nikoh shartnomasining kiritilishi, nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi) kabi hollar shular jumlasidandir.

Oila huquqining asosiy manbai O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. U XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bo'lim, XIV bobi "Oila" deb nomlanib, 63-66-moddalar oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalaridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekani hamda uning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga egaligi mustahkamlab qo'yilgan. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-modda).

Konstitutsiyamizning alohida bir bobi oilaga bag'ishlanib, uning ijtimoiy maqomi aniq ravshan belgilab qo'yilgani dunyo davlatlarining bosh qonunlarida uchraydigan kamyob voqelikdir. Shu bilan birga oilaning davlat tomonidan himoya qilinishi O'zbekiston Respublikasining Oila, Fuqarolik, Uy-joy, Mehnat Kodekslarida, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" gi, "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida" gi qator qonunlar bilan tartibga solinmoqda. Bu boradagi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, mavjud qonunchilikni bugungi shiddatkor zamon talablariga uyg'unlashtirish, oila institutini mustahkamlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2018- yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga asosan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va hududiy boshqarmalari, tuman, shaxar bo'limlari tashkil etildi. Bu oilalar huquqlari buzilganda markazga murojaat qilish imkoniyatini yaratdi. Bugunga qadar "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining hududiy boshqarmalari, tuman va shahar bo'limlari tomonidan oilaviy muammolar, ish bilan ta'minlash, moddiy yordam, huquqiy maslahat va tibbiy yordam ko'rsatish yuzasidan qilingan murojaatlar bo'yicha fuqarolarga tegishli ko'mak berildi. Shu bilan bir qatorda oila mustahkamligiga erishish, erta nikohning oldini olish borasida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston "Mahalla" hayriya jamoat fondi, "Nuroni" jamg'armasi, Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston musulmonlari idorasi vakillari, tibbiyot birlashmalari hamda ta'lim muassasalari tomonidan hamkorlik tizimli yo'lga qo'yilgan. Xususan, Respublikamizda barcha oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlarida xotin-qizlar uchun ayollar maslahatxonalari tashkil etilgan.

Mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash borasida mutlaqo yangicha tizim ishlab chiqildi, keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Prezidentimiz 2018-yil 27-iyun kuni imzolagan "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining maqsad va vazifalariga ko'ra, mamlakatimizda oilalar mustahkamligi yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, unda oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish,

qiyin hayotiy sharoitga ega oilalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida olish maqsadida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining yagona idoralararo axborot bazasini yaratish ko'zda tutilgan. Shuningdek, oilaviy biznesni, oilalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish, Oila kodeksining oiladagi huquqiy munosabatlar mezonlarini aniqlash, alimentlarni belgilash, ajrashish vaqtida ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalarini yanada takomillashtirish, ko'p bolali va muhtoj oilalarga imtiyozli kreditlar berish va yer maydonlarini taqdim etish ham nazardan chetda qolmagan. Konsepsiyada nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tish tizimini takomillashtirish, erta turmush qurish va qarindoshlar o'rtasidagi nikohning, tug'ma nuqsonli bolalar tug'ilishining oldini olish bo'yicha choratadbirlarni kuchaytirish masalasiga ham ahamiyat berilgan. Hujjatda ijtimoiy himoyaga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, voyaga yetmagan yoki nogironligi bo'lgan farzandlarni tarbiyalayotgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalarga yer uchastkalaridan samarali foydalanishida ko'maklashish, ota-onalar uchun nogironligi bo'lgan farzandlarni to'g'ri parvarishlash va tarbiyalash bo'yicha metodik hamda amaliy qo'llanmalarni ishlab chiqish, patronaj va ijtimoiy xizmatlar yordamida ularning ko'nikmalarini oshirish va boshqalar nazarda tutilgan. Shuningdek oilalarda ichki oilaviy va shaxsiy munosabatlarni, xususan, ota-ona va farzandlar, er va xotin, qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, oilada mojaroli va og'ir turmush sharoitlarini amaliy hal qilish mexanizmlarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Oila huquqi mohiyatini ochib berishda faqat uning tushunchasi, predmetini o'ziga xos xususiyati va shu bilan birga uning eng muhim tamoyillarini ham inobatga olish lozim, chunki uning tamoyillari bu huquq sohasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Oila huquqining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Oilani jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqi
2. Barcha fuqarolar – jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengligi
3. Hamma oilaviy munosabatlarda ayol bilan erkak teng huquqlidirlar
4. Oilaviy munosabatlarda ishtirok etuvchilarni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning o'zaro bir-biriga g'amxo'rlik qilishi
5. Davlat tomonidan onalik, otalik va bolalikni muhofaza etish hamda ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish
6. Ixtiyoriy va erkin nikoh
7. Faqat yakka nikohlilikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish
8. Davlat tartibi asosida nikohdan erkin ajralish
9. Bolalarni mustaqillik va milliy istiqlool mafkurasi g'oyasi asosida tarbiyalash

Oila muhofazasi uchun qilingan bu sa'y-harakatlar mamlakatimizda tinch-totuv, to'kis va ziyoli oilalar yanada ko'payishiga, farzandlarimiz sog'lom va barkamol bo'lib o'sishida ko'plab qulayliklar yaratishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Oila to'g'risida"gi farmon va qarorlari
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Oila to'g'risida"gi farmon va qarorlari